

2019 yilning yanvar - may oylarida Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **7896,4 mld. so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **96,2 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **1379,7 mld. so'mni**, o'sish sur'ati **102,3 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **17,5 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **19,1 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar - may oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 7896,4 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 96,2 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 93,1 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatida – 95,5 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 114,5 % ni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 91,3 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar - may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar - may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3548,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 44,9 % ni tashkil etdi.

Tog' - kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan neft qazib olish hajmining - 8,1 % ga, gaz kondensati – 1,0 %, tabiiy gaz – 2,5 % ga, chaqiq tosh – 41,4 % ga, qum – 30,1 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.

**Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik korxonalari
tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish**

2018 yil yanvar - mayda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019 yil yanvar - mayda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Neft, ming tonna			
240,0		220,7	91,9 
Tabiiy gaz, mln. kub metr			
14152,9		13800,6	97,5 
Gaz kondensati, ming tonna			
589,2		583,6	99,0 
Shag`al, ming tonna			
70,4		70,7	100,4 

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar - may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3241,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 41,1 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan polietilen – 3,2 % ga, ip-kalava – 26,8 % ga, plastmassa quvurlar – 20,6 % ga oshganligini, paxta tolasi, o'simlik yog'i (tozalangan) va alkogol ichimliklar ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yil yanvar - mayda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar - mayda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Plastmassa quvurlar, tonna			
1529,3		1844,0	120,6 ↑
Polietilen, ming tonna			
51,8		53,5	103,2 ↑
Alkogol ichimliklar, ming. litr			
1156		1032	89,3 ↓
Ip-kalava, tonna			
7441,0		9433,0	126,8 ↑

2018 yil yanvar - mayda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar - mayda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
---	--	---	-----------------------------

Paxta tolasi, tonna

72851



30080

41,3



O'simlik yog'i (tozalangan), tonna

14141,1



9342,1

66,1



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

2019 yil yanvar - may oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1041,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,2 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 65,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig`ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlarning -97,3 % ga oshganligi, chiqindilarni yig`ish, ishlov berish, yo`qotish va utilizasiya qilish bo'yicha xizmatlarning esa - 88,3 % ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


2019 yilning yanvar - may oylarida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1379,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,3 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 17,5 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar - may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2019 yil yanvar - may oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 61,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlari - 38,7 %, va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo – 2,0 % tashkil etdi.


**Yanvar - may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi,
% da**



Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Muborak (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 35,2 %), G'uzor (18,7 %), Nishon (11,2 %) tumanlari, Qarshi shahri (11,4 %), Qarshi (4,3 %) va Koson (4,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**2019 yilning yanvar - may oylarida shahar va tumanlarning
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**




Shu bilan birga eng kam ulush Mirishkor (1,1 %), Chiroqchi (1,3 %), Kasbi (1,5 %), Qamashi (1,6 %), Shahrisabz (1,6 %) va Yakkabog' (1,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Jami sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmida Muborak tumani 2777,4 mlrd. so`mni, G`uzor tumani 1474,4 mlrd. so`mni, Nishon tumani 883,2 mlrd. so`mni va Qarshi shahri 900,0 mlrd. so`mni sezilarli darajada tashkil etdi.

2019 yilning yanvar - may oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmi




2019 yilning yanvar - may oylarida shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish indeksi, 2018 yil yanvar - may oylariga nisbatan, % da



Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida Yakkabog' tumanida (2018 yil yanvar – may oylariga nisbatan 115,3 %), Kitob (109,6 %), Qarshi (108,0 %) Nishon (107,0 %) va Dehqonobod (106,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

2019 yil yanvar - may oylarida shahar va tumanlar bo'yicha istemol mollarining o'sish sur'atlari, 2018 yil yanvar - may oylariga nisbatan, % da




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi tumanida (2018 yil yanvar - may oylariga nisbatan 105,7 % ga), Kitob tumanida (103,5 % ga), Qamashi tumanida (102,7 % ga), Kasbi tumanida (102,7 % ga) va Nishon tumanida (102,6 % ga) oshdi.

Shuningdek, Iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahar (iste'mol tovarlari hajmida 31,7 %), Koson (9,8 %), Shahrisabz (7,9 %) tumanlarida va Shahrisabz shahrida (7,4 %) ishlab chiqarildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Muborak tumanida (32675,5 ming so'm), G'uzor tumanida (7386,7 ming so'm), Nishon tumanida (5927,7 ming so'm) va Qarshi shahrida (3316,3 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'satkichidan (2452,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'satmoqda.

2019 yilning yanvar – may oylarida shahar va tumanlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirdorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,9 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 19,1 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chiroqchi tumanida (87,1 %), Qamashi (84,1 %), Shahrисabz tumanida (81,9 %), Yakkabog` tumanida (73,1 %), Qarshi (58,2 %) va Shahrисabz (54,0 %) shaharlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak tumanida (1,1 %), G'uzor tumanida (2,3 %), Nishon tumanida (3,8 %) va Dehqonobod tumanida (11,0 %) kuzatildi.


2019 yilning yanvar - may oylarida tumanlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini.

Bugungi kunda viloyatda 3 mingdan ziyod sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 661 tasi Qarshi shahrida, 395 tasi Kitob tumanida, 270 tasi Shahrisabz shahrida, 283 tasi Yakkabog` tumanida, 240 tasi Qarshi tumanida, 228 tasi Chiroqchi tumanida, 173 tasi Qamashi tumanida, 158 tasi Shahrisabz tumanida, 158 tasi Koson tumanida, 135 tasi G`uzor tumanida, 102 tasi Kasbi tumanida, 59 tasi Muborak tumanida, 106 tasi Nishon tumanida, 61 tasi Dehqonobod tumanida va 68 tasi Mirishkor tumanlarida joylashgan.

2019 yil 1 iyun holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni



Joriy yilning yanvar - may oylarida viloyatda 667 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etilgan bo'lib, ulardan 100 tadan ortiq Qarshi shahriga, 60 tadan ortiq Chiroqchi va Yakkabog` tumanlariga, 50 tadan ortiq Shahrisabz, Kitob, Qarshi tumanlariga, 40 tadan ortiq Nishon va Shahrisabz shahriga, 30 tadan ortiq Kasbi, Qamashi va G`uzor tumanlariga, 20 tadan ortiq Koson va Mirishkor tumanlariga, 10 tadan ortiq Dehqonobod va Muborak tumanlariga to'g'ri keladi.